

TURKIYA MAARIF JAMG'ARMASINING (TMV) GLOBAL FAOLIYATI, TA'LIM DIPLOMTIYASINING DAVLAT MILLIY MANFAATLARI VA XAVFSIZLIK SIYOSATI BILAN BOG'LIQLIGI.

Nishonova Dilso'z Sadritdinovna

nishonovadilsuz@gmail.com

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada Turkiya Maarif Vakfi (TMV)ning global faoliyati hamda ta'lim diplomatiyasining davlat milliy manfaatlari va xavfsizlik siyosati bilan o'zaro bog'liqligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda Turkiya tashqi siyosatining XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi transformatsiyasi, xususan "yumshoq kuch" konsepsiyasi doirasida ta'lim diplomatiyasining strategik instrument sifatida shakllanishi yoritilgan. TMVning tashkil etilishi, uning institutsional maqomi va xorijdagi ta'lim faoliyati Turkiyaning geosiyosiy, madaniy va mafkuraviy manfaatlari bilan uzviy bog'liqligi asoslab beriladi. Shuningdek, jamg'armaning xalqaro maktablar tarmog'i orqali ijobiy davlat imijini shakllantirish, strategik elitalarni tayyorlash, madaniy ta'sir doirasini kengaytirish hamda milliy xavfsizlikni qo'llab-quvvatlashdagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Maqolada TMV faoliyati konstruktivizm va yumshoq kuch nazariyalari asosida baholanib, uning Afrika, Bolqon va Markaziy Osiyodagi geosiyosiy jarayonlarga ta'siri ochib berilgan. Tadqiqot natijalari TMV zamonaviy xalqaro munosabatlarda ta'lim diplomatiyasining kompleks va ko'p funksiyali modeli sifatida shakllanayotganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Turkiya Maarif jamg'armasi, TMV, ta'lim diplomatiyasi, yumshoq kuch, milliy manfaatlar, xavfsizlik siyosati, tashqi siyosat, geosiyosat, konstruktivizm, strategik elita, madaniy diplomatiya, xalqaro ta'lim, Turkiya tashqi siyosati, mafkuraviy xavfsizlik, global ta'lim siyosati.

АННОТАЦИЯ. В данной статье анализируется глобальная деятельность Türkiye Maarif Vakfı (TMV) и взаимосвязь образовательной дипломатии с национальными интересами и политикой безопасности государства. В исследовании рассматриваются трансформации внешней политики Турции конца XX — начала XXI века, в частности формирование образовательной дипломатии как стратегического инструмента в рамках концепции «мягкой силы». Обосновывается институциональный статус TMV, особенности его деятельности в зарубежных странах и их связь с геополитическими, культурными и идеологическими интересами Турции. Также научно анализируется роль фонда в формировании позитивного международного имиджа государства, подготовке стратегических элит, расширении культурного влияния и поддержке национальной безопасности посредством сети международных образовательных учреждений. Деятельность TMV оценивается на основе теорий конструктивизма и «мягкой силы», а также раскрывается её влияние на геополитические процессы в Африке, на Балканах и в Центральной Азии. Результаты исследования показывают, что TMV формируется как комплексная и многофункциональная модель образовательной дипломатии в современной системе международных отношений.

Ключевые слова: Фонд Maarif Турции, TMV, образовательная дипломатия, мягкая сила, национальные интересы, политика безопасности, внешняя политика, геополитика, конструктивизм, стратегические элиты, культурная дипломатия, международное

образование, внешняя политика Турции, идеологическая безопасность, глобальная образовательная политика.

ABSTRACT. This article analyzes the global activities of Türkiye Maarif Vakfı (TMV) and the relationship between educational diplomacy, national interests, and state security policy. The study examines the transformation of Turkish foreign policy in the late twentieth and early twenty-first centuries, particularly the emergence of educational diplomacy as a strategic instrument within the framework of soft power. It explores the institutional status of TMV and demonstrates how its international educational activities are closely linked to Turkey's geopolitical, cultural, and ideological interests. The article further analyzes the role of the foundation in shaping a positive international image of the state, training strategic elites, expanding cultural influence, and supporting national security through its global network of educational institutions. TMV's activities are evaluated through the theoretical perspectives of constructivism and soft power, while its influence on geopolitical processes in Africa, the Balkans, and Central Asia is also highlighted. The findings indicate that TMV has emerged as a comprehensive and multifunctional model of educational diplomacy in the contemporary international relations system.

Keywords: *Türkiye Maarif Foundation, TMV, educational diplomacy, soft power, national interests, security policy, foreign policy, geopolitics, constructivism, strategic elites, cultural diplomacy, international education, Turkish foreign policy, ideological security, global education policy.*

KIRISH . XX asr oxiri XXI asr boshlarida Turkiya tashqi siyosatida strukturaviy transformatsiyalar kuzatilib, unda an'anaviy "qattiq kuch" vositalari bilan bir qatorda "yumshoq kuch" instrumentlari ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi. Mazkur transformatsiya, ayniqsa, ta'lim diplomatiyasining institutsionallashuvi orqali yaqqol namoyon bo'ldi. XXI asrning birinchi choragida Turkiya Respublikasining tashqi siyosiy strategiyasida tub burilish kuzatildi. Xususan, "ko'p qirrali va tashabbuskor tashqi siyosat" doktrinasi doirasida ta'lim sohasi "yumshoq kuch" elementidan davlatning strategik xavfsizlik vositasiga transformatsiya qilindi. Ushbu jarayonning institutsional ifodasi sifatida Turkiya Maarif jamg'armasi (Türkiye Maarif Vakfı – TMV) faoliyatini ilmiy jihatdan o'rganish alohida dolzarblilik kasb etadi. TMV Turkiyaning global ta'lim siyosatini amalga oshiruvchi markaziy institut sifatida shakllanib, ta'lim diplomatiyasi orqali davlatning milliy manfaatlarini va tashqi siyosiy maqsadlarini amalga oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Bu jarayonda mazkur Maarif jamg'armasi (TMV) Turkiyaning global ta'lim siyosatini amalga oshiruvchi markaziy aktor sifatida shakllandi. Turkiya Maarif jamg'armasi (TMV) so'nggi yillarda global miqyosda faoliyat yuritayotgan muhim ta'lim institutlaridan biri sifatida shakllanib, uning faoliyati ta'lim diplomatiyasi doirasida davlatlarning milliy manfaatlarini va xavfsizlik siyosati bilan uzviy bog'liqligini namoyon etmoqda. TMV tomonidan xorijiy mamlakatlarda ta'lim muassasalarining tashkil etilishi, o'quv dasturlarining joriy etilishi va mahalliy ta'lim tizimlari bilan integratsiya jarayonlari bir tomondan ta'lim xizmatlarini rivojlantirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan Turkiyaning xalqaro maydondagi strategik va geosiyosiy manfaatlarini ilgari surish vositasi sifatida baholanadi.

TMVning institutsional maqomi 2016-yil 17-iyundagi 6721-sonli qonun asosida belgilangan bo'lib, u Turkiya Respublikasi nomidan xorijda ta'lim faoliyatini amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan yagona davlat jamg'armasi hisoblanadi. Mazkur holat Turkiya tashqi siyosatida ta'lim diplomatiyasining alohida yo'nalish sifatida shakllanganini ko'rsatadi. Akademik nuqtai nazardan,

TMVning tashkil etilishi Turkiya tashqi siyosatidagi "ta'lim diplomatiyasi" tushunchasini yangi bosqichga olib chiqdi. Zamonaviy xalqaro munosabatlar nazariyasiga ko'ra, ta'lim diplomatiyasi davlatlarning yumshoq kuch salohiyatini oshirishda muhim instrument hisoblanadi. U davlatlarning xalqaro maydondagi ta'sirini kengaytirish, ijtimoiy kapitalni shakllantirish va uzoq muddatli strategik manfaatlarni ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu konsepsiya Joseph Nye tomonidan ishlab chiqilgan yumshoq kuch nazariyasiga asoslanadi. Nye fikriga ko'ra, davlatlar o'z maqsadlariga majburlash yoki iqtisodiy bosim orqali emas, balki jozibadorlik va madaniy qadriyatlar orqali erishadi. Xalqaro munosabatlarda davlatlarning o'z ta'sir doirasini kengaytirish, ijtimoiy kapital yaratish va uzoq muddatli strategik manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan vosita sifatida ta'lim diplomatiyasi talqin etiladi. Shu nuqtayi nazardan, TMV faoliyati Turkiyaning madaniy, til va ta'lim standartlarini xalqaro miqyosda targ'ib qilish orqali ijobiy davlat imijini shakllantirish va uzoq muddatli hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa ta'lim diplomatiyasini davlatning milliy manfaatlarini amalga oshirishning noan'anaviy, biroq samarali vositasi sifatida namoyon etadi

Shu nuqtayi nazardan, jamg'arma faoliyati shunchaki bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki xalqaro munosabatlarning konstruktivizm nazariyasiga muvofiq, Turkiya haqidagi ijobiy tasavvurni va madaniy-ma'rifiy qadriyatlarni xorijiy jamiyatlar ongiga singdirish orqali uzoq muddatli strategik ta'sir doiralarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda beshta qit'ada qariyb 50 dan ortiq davlatda faoliyat yuritayotgan TMV maktablari Turkiyaning global madaniy ta'sirini kuchaytiruvchi muhim intellektual platformalar sifatida baholanadi. Ta'lim orqali normativ ta'sirni shakllantirish, madaniy va ideologik diskursni eksport qilish hamda xalqaro hamkorlik tarmoqlarini kengaytirish ushbu jarayonning asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi. TMV davlat tashqi siyosatining gumanitar yo'nalishlarini markazlashgan holda amalga oshirib, Yunus Emre Institute hamda Turkish Cooperation and Coordination Agency (TIKA) kabi institutlar bilan sinergik tizimni shakllantiradi. Shu bilan birga, TMVning global faoliyati xavfsizlik siyosati bilan ham bevosita bog'liq. Xususan, ta'lim muassasalari orqali mafkuraviy ta'sir o'tkazish, kadrlar tayyorlash va ijtimoiy tarmoqlarni shakllantirish jarayonlari milliy xavfsizlikning kengaytirilgan konsepsiyasi doirasida talqin etiladi. Bu esa ta'lim diplomatiyasini faqat madaniy-gumanitar yo'nalish bilan cheklab bo'lmasligini, balki uni strategik va siyosiy omillar bilan chambarchas bog'liq kompleks tizim sifatida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. TMVning tashkil etilishi: xavfsizlik paradigmasi va siyosiy kontekstida muhim ahamiyat kasb etadi. TMVning tashkil etilishi xavfsizlik paradigmasi va siyosiy kontekst nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. TMV 2016-yilda Turkiyada sodir bo'lgan davlat to'ntarishiga urinishdan so'ng tashkil etilgan bo'lib, bu holat uning shakllanishida xavfsizlik omili ustuvor rol o'ynaganini ko'rsatadi. Mazkur voqea Turkiya davlatini xorijdagi ta'lim tarmoqlarini qayta nazorat qilish va markazlashtirish zaruratiga olib keldi. Xususan, Fethullah Gülen bilan bog'liq global ta'lim infratuzilmasi davlat tomonidan milliy xavfsizlikka tahdid sifatida baholandi. Shu sababli TMV mavjud ta'lim muassasalarini davlat nazoratiga o'tkazish, yangi ta'lim platformalarini yaratish hamda ideologik va institutsional xavfsizlikni ta'minlash vazifalarini bajaruvchi strategik vosita sifatida shakllandi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Tadqiqotda tarixiy-tahliliy, institutsional, qiyosiy-siyosiy va kontent-tahlil usullaridan foydalanildi. Turkiya Maarif jamg'armasining huquqiy maqomi, rasmiy hisobotlari, Turkiya tashqi siyosatiga oid ilmiy manbalar, xalqaro tashkilotlar materiallari va

ommaviy axborot manbalari tahlil qilindi. Nazariy asos sifatida yumshoq kuch, ta'lim diplomatiyasi va konstruktivizm yondashuvlari tanlandi. Ushbu metodologiya TMV faoliyatini faqat ta'lim xizmati sifatida emas, balki milliy manfaatlar, xavfsizlik siyosati va geosiyosiy ta'sir bilan bog'liq kompleks institutsional jarayon sifatida baholash imkonini berdi.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA. Turkiya ta'limi va milliy xavfsizlikning o'zaro aloqadorligini tashqi siyosatining o'ziga xos xususiyati shundaki, u o'zining geosiyosiy nufuzini mustahkamlashda ta'lim resurslaridan "oldingi chiziq" elementi sifatida foydalanadi. TMV faoliyati davlatning milliy manfaatlariga uchta asosiy yo'nalishda xizmat qiladi:

1. Mafkuraviy va intellektual xavfsizlik: 2016-yil 15-iyuldagi davlat to'ntarishiga urinishdan so'ng, FETÖ (Fethullahçı Terör Örgütü) terrorchilik tashkilotining xorijdagi ta'lim tarmog'ini zararsizlantirish Turkiya milliy xavfsizligining ustuvor vazifasiga aylandi. TMV bu jarayonda "alternativ va ishonchli ta'lim modeli"ni taklif etish orqali xavfsizlik vakuumini to'ldirdi va Turkiyaning xalqaro maydondagi siyosiy legitimligini mustahkamlashga xizmat qildi. Jamg'arma hozirgi kunda ham ushbu maktablarni qonuniy yo'l bilan o'z tasarrufiga olish yoki ularga muqobil yaratish orqali terrorizmni moliyalashtirish manbalarini qirqish va "mafkuraviy vakuum"ni to'ldirish funksiyasini bajardi.

2. Strategik elitalarni shakllantirish: TMV maktablarida tahsil olayotgan mahalliy yoshlar kelajakda o'z mamlakatlarining siyosiy va iqtisodiy elitasini tashkil etishi kutilmoqda. Jamg'arma tomonidan 50 dan ortiq mamlakatda tashkil etilgan maktab va universitetlar "Turkiya bilan hamfikir bo'lgan intellektual qatlam"ni tarbiyalamoqda. Ushbu "maarif avlodi" kelajakda o'z mamlakatlarining qaror qabul qiluvchi elitasiga aylanishi orqali Turkiya uchun uzoq muddatli geosiyosiy va iqtisodiy imtiyozlarni ta'minlaydi. Bu esa Turkiya uchun "do'stona elita" qatlamini yaratish orqali davlatning uzoq muddatli tashqi siyosiy manfaatlarini kafolatlaydi.

3. Kiber va axborot xavfsizligi: Ta'lim diplomatiyasi orqali Turkiya xalqaro maydonda o'ziga nisbatan yuritilayotgan axborot urushlariga qarshi "ma'rifiy qalqon" hosil qiladi. TMV o'z faoliyatida ham davlat resurslaridan foydalanadi, ham nodavlat tashkilotlarga xos moslashuvchanlikni namoyish etadi. Bu esa unga xalqaro huquq doirasida turli siyosiy rejimlarga ega davlatlar bilan samarali muloqot o'rnatish imkonini beradi.

Xavfsizlik siyosati va ta'lim diplomatiyasining o'zaro integratsiyasi zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida tobora kuchayib borayotgan tendensiya sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur jarayonda ta'lim diplomatiyasi nafaqat madaniy va ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish vositasi, balki xavfsizlik siyosatini qo'llab-quvvatlovchi muhim mexanizmga aylanmoqda. TMV faoliyati ushbu integratsiyaning amaliy ifodasi sifatida e'tiborga loyiqdir. Xususan, ideologik xavfsizlik nuqtayi nazaridan, ta'lim muassasalari orqali davlat manfaatlariga zid bo'lgan qarashlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik va normativ choralar amalga oshiriladi. Institutsional darajada esa xorijdagi ta'lim muassasalarini markazlashgan boshqaruv tizimiga o'tkazish orqali nazorat va muvofiqlashtirish mexanizmlari kuchaytiriladi. Shu bilan birga, geosiyosiy jihatdan strategik hududlarda ta'lim loyihalarini amalga oshirish ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilib, umumiy xavfsizlik arxitekturasi muhim tarkibiy qismiga aylanadi. Bu jihatdan TMV faoliyati Turkiyaning "proaktiv tashqi siyosat" konsepsiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, unda davlat faqat reaktiv emas, balki tashabbuskor aktor sifatida harakat qiladi.

TMV tomonidan ilgari surilayotgan "Maarif modeli" xalqaro ta'lim standartlarini, xususan International Baccalaureate (IB) (xalqaro ta'lim dasturi va notijorat ta'lim tashkiloti bo'lib, o'quvchilarga global darajada tan olingan, standartlashtirilgan va yuqori sifatli ta'lim berish) tizimini milliy va ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishga asoslangan. Bu model G'arbiy liberal ta'lim tizimlaridan farqli o'laroq, "inson markazli" yondashuvni taklif etadi. Akademik tahlillar shuni ko'rsatadiki, TMV faoliyati Turkiyaning Afrika, Bolqon va Markaziy Osiyo mintaqalaridagi geosiyosiy faolligini oshirishda "katalizator" rolini o'ynamoqda. Ayniqsa, Afrikada TMV maktablarining ko'payishi Turkiyaning ushbu qit'adagi iqtisodiy va harbiy hamkorlik shartnomalari bilan parallel ravishda kechmoqda, bu esa "kompleks tashqi siyosat" yondashuvidan dalolat beradi. Maarif jamg'armasi faoliyati davlatning milliy manfaatlarini ro'yobga chiqarishda kompleks va ko'p qatlamli instrument sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, siyosiy manfaatlar asosida shakllantirilgan ta'lim tarmoqlari davlatning tashqi siyosiy va diplomatik ta'sir salohiyatini kengaytirishga xizmat qiladi. Ushbu ta'lim muassasalari bitiruvchilari orasida Turkiyaga nisbatan ijobiy imij va munosabat shakllanishi kuzatilib, bu holat uzoq muddatli istiqbolda barqaror siyosiy kapitalga aylanadi. Shu bilan birga, ta'lim sohasi iqtisodiy manfaatlarni ilgari surishda ham muhim vosita sifatida namoyon bo'lib, u iqtisodiy hamkorlik va aloqalarni rivojlantirish uchun "yumshoq kirish nuqtasi" vazifasini bajaradi.

TMV faoliyatining yana bir muhim jihati — uning qabul qiluvchi davlatlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yishga qaratilganidir. Bunda ta'lim sifatini oshirish, yangi o'quv dasturlarini joriy etish va xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilanadi. Biroq ushbu jarayonlarda suverenitet, milliy ta'lim siyosatiga tashqi ta'sir va institutsional muvozanat masalalari ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu sababli TMV faoliyatini baholashda ikki tomonlama yondashuv — ya'ni uni ham rivojlanish va ham geosiyosiy ta'sir vositasi sifatida ko'rib chiqish ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi.

Turkiya Maarif jamg'armasi bugungi kunda 50 dan ortiq davlatda faoliyat yuritib, yuzlab ta'lim muassasalarini boshqaradi. Uning geografiyasi asosan quyidagi Afrika (Somali, Sudan, Nigeriya); Markaziy Osiyo (Qozog'iston, Qirg'iziston); Bolqon mintaqasi (Albaniya, Bosniya va Gersegovina); Janubi-Sharqiy Osiyo (Indoneziya, Malayziya). hududlarni qamrab oladi. Bu hududlar tanlovi tasodifiy emas, balki Turkiyaning tarixiy, madaniy va geosiyosiy manfaatlar bilan bog'liq. Jamg'armaning global faoliyati qat'iy tabaqalashgan strategiyaga asoslangan. Bolqon mintaqasida jamg'arma tarixiy va madaniy yaqinlikni tiklash orqali "turkofil" muhitini yaratishga intilsa, Afrika qit'asida asosiy urg'u "insonparvarlik diplomatiyasi" va kadrlar salohiyatini oshirishga qaratilgan. Markaziy Osiyoda esa TMV faoliyati "Turkiy davlatlar tashkiloti" doirasidagi integratsiya jarayonlarini intellektual jihatdan qo'llab-quvvatlashga va mintaqaviy xavfsizlikning ma'rifiy asoslarini yaratishga yo'naltirilgan.

TMV faoliyatining asosiy yo'nalishlari: xalqaro maktablar tarmog'ini rivojlantirish, o'quv dasturlarini standartlashtirish, turk tilini global til sifatida targ'ib qilish, stipendiya va akademik almashinuv dasturlarini rivojlantirish bo'lib, ushbu tashabbuslar orqali sifatli ta'limni keng yoyish, madaniy aloqalarni mustahkamlash hamda xalqaro miqyosda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Jamg'arma o'z faoliyati orqali madaniy manfaatlar ta'sir doirasini kengaytirib, turk tili va madaniyatini tizimli ravishda targ'ib etadi. Natijada, "madaniy makon" kengayib boradi va bu jarayon o'z navbatida Turkiyaning global identitetini mustahkamlash hamda uning xalqaro maydondagi madaniy nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda TMV faoliyatiga nisbatan turli qarashlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar uni samarali “yumshoq kuch” instrumenti sifatida baholasa, boshqalar uni siyosiy lashtirilgan ta’lim modeli sifatida tanqid qiladilar. Asosiy muammolar sifatida ta’lim va siyosat o’rtasidagi chegaraning noaniqligi, qabul qiluvchi davlatlarda suverenitet masalalarining dolzarbligi, shuningdek moliyaviy va boshqaruv samaradorligi bilan bog’liq qiyinchiliklar qayd etiladi. Ushbu omillar ta’lim tashabbuslarining siyosiy ta’sir vositasiga aylanish ehtimolini kuchaytiradi hamda hamkorlik jarayonlarida institutsional muvozanatni ta’minlashni talab qiladi.

Shu bilan birga, mazkur muammolarga qaramasdan, TMV modeli zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida ta’lim diplomatiyasining innovatsion shakli sifatida namoyon bo’lmoqda. U ta’lim orqali “yumshoq kuch”ni amalga oshirish, madaniy-akademik aloqalarni mustahkamlash va davlatlararo hamkorlikni rivojlantirishda muhim instrument sifatida ilmiy doiralarda katta qiziqish uyg’otmoqda.

XULOSA. Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, ilmiy tahlillar TMV maktablarining geografik joylashuvi Turkiyaning tashqi savdo yo’llari, energetika xavfsizligi va geoiqtisodiy ustuvor yo’nalishlari bilan muayyan darajada uyg’unlashganini ko’rsatadi. Ushbu tizimning davlat institutlari, xususan milliy xavfsizlik va tashqi siyosat mexanizmlari bilan muvofiq lashtirilgan holda faoliyat yuritishi uni an’anaviy ta’lim tashabbusidan kengroq — strategik ahamiyatga ega bo’lgan vosita sifatida talqin qilish imkonini beradi. Shu ma’noda, TMV xorijdagi “madaniy mudofaa chizig’i” sifatida namoyon bo’lib, ta’lim orqali siyosiy imijni shakllantirish hamda mintaqaviy va global raqobatda ma’naviy-ideologik ustunlikka erishishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, TMV faoliyati ta’lim diplomatiyasining zamonaviy ko’rinishi sifatida “yumshoq kuch” konsepsiyasining amaliy ifodasini ta’minlaydi. U orqali ta’lim sohasi nafaqat bilim va kompetensiyalarni uzatish maydoni, balki strategik kommunikatsiya, ijtimoiy ta’sir va uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirish instrumentiga aylanmoqda. Mazkur jarayonda gumanitar va strategik komponentlarning integratsiyasi ta’lim siyosatini davlatning pragmatik manfaatlari bilan uyg’unlashtirish imkonini bermoqda.

Umuman olganda, Turkiya Maarif jamg’armasi global miqyosda ko’p funksiyali institut sifatida shakllanib, milliy manfaatlarni ilgari surish, ijobiy xalqaro imijni mustahkamlash va xavfsizlik siyosatini qo’llab-quvvatlashda muhim rol o’ynamoqda. Uning tajribasi zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida ta’lim diplomatiyasining samarali va kompleks vosita sifatida shakllanayotganini ko’rsatuvchi muhim ilmiy keys sifatida baholanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nye J. S. *Soft Power: The Means to Success in World Politics*. – New York: PublicAffairs, 2004. <https://www.publicaffairsbooks.com/titles/joseph-s-nye-jr/soft-power/9781586483067/>
2. Nye J. S. *Public Diplomacy and Soft Power* // *The Annals of the American Academy of Political and Social Science*. – 2008. <https://doi.org/10.1177/0002716207310007>
3. Davutoğlu A. *Stratejik Derinlik*. – Istanbul: Küre Yayınları, 2001. <https://www.kureyayinlari.com/kitap/stratejik-derinlik>
4. Melissen J. *The New Public Diplomacy*. – London: Palgrave Macmillan, 2005. <https://link.springer.com/book/10.1057/9780230554931>
5. Aras B., Fidan H. *Turkey and Eurasia: Frontiers of a New Geographic Imagination* // *New Perspectives on Turkey*. – 2009.

6. Aras B., Fidan H. Turkey's Foreign Policy and Soft Power Strategy // Insight Turkey. – 2019. <https://www.insightturkey.com>
7. Kalın İ. Turkish Foreign Policy and Public Diplomacy // Insight Turkey. – 2011.
8. Kalın İ. Public Diplomacy and Soft Power in Turkish Foreign Policy // Insight Turkey. – 2011.
9. Özkan B. Turkey's Soft Power Institutions and Cultural Diplomacy // Insight Turkey. – 2018. <https://www.insightturkey.com>
10. Yavuz M. H., Koç M. The Gülen Movement and Security Narratives. <https://www.tandfonline.com>
11. Yavuz M. H., Balcı B. Turkey's Education Diplomacy and Maarif Foundation. – 2020.
12. Yılmaz İ. Turkey's Education Diplomacy and Global Engagement // Journal of International Relations. – 2020. <https://journals.sagepub.com/home/jir>
13. Türkiye Cumhuriyeti. 6721 sayılı Türkiye Maarif Vakfı Kanunu. – 17.06.2016. <https://www.mevzuat.gov.tr/MevzuatMetin/1.5.6721.pdf>
14. Türkiye Maarif Vakfı. Yıllık hisobotlar (2017–2023). – Ankara. <https://www.turkiyemaarif.org>
15. Türkiye Maarif Vakfı. Institutional structure and global activities. <https://www.turkiyemaarif.org>

